

SO‘Z METAFORALARNING PSIXOLINGVISTIK VA KOGNITIV JIXATLARINING LINGVISTIK TAHLILI

M.F.Meliqo‘ziyeva

Qo‘qon davlat pedagogika instituti, O‘zbekiston, Qo‘qon

melikuziyevmurodbek7@gmail.com

Annotatsiya: So‘z metaforalar nafaqat badiiy adabiyotda tilning jozibadorligini, estetik quvvatini oshiruvchi birlik sifatida, balki ta‘lim-tarbiyada, fan-texnika sohasida, tibbiyot va boshqa sohalarda ham izohlovchi qurol sifatida muhimdir. So‘zning tildagi turg‘unligi, ya‘ni uning shu tilda gapiruvchilar tomonidan doimo e‘tirof etilishi, uni kodifikatsiya qilish ya‘ni me‘yoriy xatlash uchun asosiy mezon sifatida belgilanmoqda. Lug‘atshunoslik sohasining tilda milliy-madaniy hodisalar diskursida tadqiq qiluvchi lingvomadaniyatshunoslik yo‘nalishi xususan so‘z metaforalarning psixolingvistik va kognitiv jixatlarining lingvistik tahlili to‘g‘risidagi izlanishlarning qisqacha mazmuni mazkur maqolada bayyon etilgan.

Kalit so‘zlar: So‘z metaforalari, psixolingvistik, kognitiv jixat, lingvistik tahlil, lug‘atshunoslik, so‘zlik, ma‘rifiy-badiiy, fitoso‘z, metafora, ma‘rifiy-taqilidiy, badiiy, so‘z ma‘nosi, lug‘at.

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИХ И КОГНИТИВНЫХ АСПЕКТОВ СЛОВОВЫХ МЕТАФОРОВ

Аннотация: Словометафоры важны не только в художественной литературе как единица, повышающая привлекательность и эстетическую силу языка, но и как объяснительный инструмент в образовании, науке и технике, медицине и других областях. Устойчивость слова в языке, то есть его постоянное узнавание носителями этого языка, определяется как главный критерий его кодификации, т. е. нормативного письма. В статье представлен краткий обзор исследований в области лексикологии, изучающей дискурс национально-культурных событий в языке, в частности лингвистический анализ психолингвистических и когнитивных аспектов метафор.

Ключевые слова: словесные метафоры, психолингвистический, когнитивный аспект, лингвистический анализ, лексикология, лексика, учебно-художественные, фитослова, метафоры, учебно-подражательные, художественные, значение слова, словарь.

LINGUISTIC ANALYSIS OF PSYCHOLINGUISTIC AND COGNITIVE ASPECTS OF WORD METAPHORS

Abstract: Word metaphors are important not only in fiction as a unit that increases the attractiveness and aesthetic power of the language, but also as an explanatory tool in education, science and technology, medicine and other fields. The stability of a word in a language, that is, its constant recognition by native

speakers of this language, is defined as the main criterion for its codification, i.e., normative writing. The article presents a brief overview of research in the field of lexicology, which studies the discourse of national and cultural events in the language, in particular, a linguistic analysis of the psycholinguistic and cognitive aspects of metaphors.

Key words: verbal metaphors, psycholinguistic, cognitive aspect, linguistic analysis, lexicology, vocabulary, educational and artistic, phytowords, metaphors, educational and imitative, artistic, word meaning, dictionary.

Dunyo tilshunosligi, jumladan, amaliy lug‘atshunoslik tilda milliy-madaniy hodisalarning ifodalanishiga hamisha e‘tibor qaratib kelgan. Shu boisdan tilshunoslikda tilni milliy-madaniy hodisalar diskursida tadqiq qiluvchi lingvomadaniyatshunoslik yuzaga keldi[2]. Til birliklarini lingvomadaniy jihatdan tadqiq qilish zamonaviy tilshunoslik fanining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoldi.

Jahon tilshunosligida til va madaniyat munosabati tadqiqiga e‘tibor kuchayganligi ularni o‘zida yaqqol aks ettiruvchi so‘z metaforalar tadqiqining ham muhim masala ekanligini ko‘rsatadi[2]. Shu ma’noda, ko‘chimlar, uning markazida turuvchi so‘z metafora o‘zining sof milliy tabiati bilan ajralib turadi. Unda milliy tilning borliqni tasniflash va o‘z manzarasida aks ettirish xususiyatlari mujassamlashgan bo‘ladi. So‘z metaforada xalq turmush tarzi, an‘analari, urf-odatlar, mentaliteti, tafakkuri, bilish jarayoni kabi qator hodisalar o‘z ifodasini topadi. Shu boisdan so‘z metaforani lingvomadaniy nuqtayi nazardan tadqiq qilish til va jamiyat muammosi kesimida har doim ham dolzarb masala sifatida namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy lug‘atlarga zamonaviy leksikologiya, lingvokulturologiya hamda lingvodidaktikaning yangi ma’lumotlari asosida tartiblarni belgilash bugungi kunning muhim muammolaridan hisoblanadi[2,4].

So‘z metaforalar nafaqat badiiy adabiyotda tilning jozibadorligini, estetik quvvatini oshiruvchi birlik sifatida, balki ta’lim-tarbiyada, fan-texnika sohasida, tibbiyot va boshqa sohalarda ham izohlovchi qurol sifatida muhimdir[5]. Demak, so‘z metaforalar ilm hamda tilni boyitibgina qolmay, inson hatti harakatini tushunish, idrok qilish uchun o‘ziga xos vosita hamdir. Bunday milliy boylikni saqlab, izohlab kelajak avlodga yetkazib berish vazifasi izohli lug‘atlar zimmasiga yuklanganligi barchaga ma’lum. Chunki har qanday lug‘at inson tafakkurining ijodi sifatida avvalambor faktlar asosida to‘plangan, umumlashgan tajriba mahsuli hisoblanadi.

Lug‘atning asosiy birligi so‘z bo‘lib, u o‘z ma’nosi doirasida tabiiy borliqdagi predmetlar haqidagi tushunchalarni hamda tabiiy hodisalarning soni, sifati va ular orasidagi munosabatlarni ifodalaydi. Tillarning izohli lug‘atlariga, ya’ni bir tilli lug‘atlarga an‘anaga ko‘ra shu tilda so‘zlashuvchilar tomonidan e’tirof etilgan, faktlar asosida shakllangan turg‘un til birliklari kiritiladi. Jonli tilda, adabiy asarlarda qahramonlar nutqlarida tasodifan qo‘llanilgan, okkazonal so‘z va iboralar lug‘atlarda qayd etilmaydi.

Soʻzning tildagi turgʻunligi, yaʼni uning shu tilda gapiruvchilar tomonidan doimo eʼtirof etilishi, uni kodifikatsiya qilish yaʼni meʼyoriy xatlash uchun asosiy mezon hisoblanadi[2]. Albatta, tilda toʻxtovsiz paydo boʻlayotgan yangi tushuncha, termin-atamalar bundan mustasno. Bunday soʻzlar maxsus neologizmlar lugʻatining obyekt boʻlishi bilan birga izohli lugʻatlarda ham maʼlum darajada inobatga olinishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Izohli lugʻatning asosiy vazifasi imkon doirasida tilning hozirgi holatidagi mavjud lugʻat tarkibini kengroq, chuqurroq, atroflicha, aniq taʼriflash, tasvirlash va izohlash orqali xatlashdir.

Izohli lugʻatlar har qanday xalqning milliy boyligi, oʻxshatish joiz boʻlsa “Oltin sandigʻi” boʻlibgina qolmasdan, ular tillarning leksikologiya, grammatika, fonetika, stilistika, frazeologiya, paremiologiya va tarjimashunoslik sohalari uchun asosiy ishonchli manbalardan hisoblanadi. Ular oʻqituvchi va oʻquvchilar, shoiru yozuvchilar, olimlar va tarjimonlar va boshqa barcha ilmiy-amaliy faoliyatlar bilan shugʻullanuvchilar uchun betakror manba sanaladi[5,6]. Shuning uchun ham lugʻatga tartib berish, yaʼni lugʻat tuzish lugʻatshunoslardan katta masʼuliyat talab etadi. Lugʻat ilm-bilim sarchashmasi boʻlish bilan birga uning tarbiyaviy ahamiyati ham beqiyosdir. Chunki, nimaiki lugʻatda muhrlangan boʻlsa, u meʼyor darajasiga ega boʻlib qoladi. Shu sababdan lugʻatshunos biror bir soʻzni lugʻatga kiritishdan oldin yetti oʻlchab bir kesmogʻi lozim. Qandaydir soʻz yoki soʻz birikmasini lugʻatlarga kiritib uni izohlash va eʼlon qilish uni qoʻllash mumkinligini eʼtirof etishdir.

Odatda izohli lugʻatlar konservativ xususiyatga ega boʻladilar. Bu bir tarafdin ularning ijobiy tomoni hisoblansa, yaʼni tildagi oʻz qimmatini yoʻqotmagan, mavjud boʻlgan barcha soʻzlarni xatlasa, muhrlasa ikkinchi tomondan lugʻat tuzish vaqtida yangi paydo boʻlgan tushuncha hamda termin-atamalarning yashovchanligi, turgʻunlik darajasini aniqlashda bir qator qiyinchiliklarga duch keladilar[4]. Darvoqe, bunday lugʻatlar bir ikki yilda tuzilmasdan, ularga bir necha yillar davomida tartib beriladi. Bu holat lugʻatning maʼlum konservativlik maqomini olishiga sabab boʻladi.

Lugʻatlarda “soʻzlik” masalasi. Lugʻatlarda izohlanuvchi soʻzlar majmuasi lugʻatning soʻzligi hisoblanadi. Lugʻatning “Bosh soʻzi” lugʻaviy birlik sifatida lugʻat maqolasi tuziladigan soʻzdir. Bosh soʻzga tuzilgan lugʻat maqolasi doirasida maʼlum prinsiplar asosida shu soʻzga taaluqli barcha maʼlumotlarni berish talab etiladi[7,8].

Soʻz metaforalarning psixolingvistik va kognitiv jihatlarining lingvistik tahlil qilgan holda biz bir qator hozirgi zamon ingliz tili lugʻatlarining soʻzliklarini qiyosiy tahlilga tortdik. bular:

1. Chambers 20th Century Dictionary (1983, Buyuk Britaniya) (SSD)
2. Macmillan English Dictionary (2007, Buyuk Britaniya) (MED)
3. Bolshoy Anglo-Russkiy Slovar (1972, Moskva) (BARS)
4. The Merriam-Webster Dictionary (2018, AQSH) (MWD)
5. Oxford Dictionary of Current English (2006, Buyuk Britaniya) (ODCE)

Lug‘at tarkibining o‘zgarishi va rivojini aniqlash maqsadida ba’zi o‘rinlarda nisbatan avvalroq chop etilgan lug‘atlar ham qiyosga tortildi. Masalan:

1. The Shorter Oxford English Dictionary on Historical Principles, Oxford, 1934.
2. The Concise English Dictionary of Current English, Oxford, 1934.
3. Myuller. Anglo-Russkiy Slovar, Gosudarstvennoye izdatelstvo inostrannykh i natsionalnykh slovarey, Moskva, 1950.

Lug‘atlarning qiyosiy tahlili, albatta, ularning qachon, qayerda, kim tomonidan, kimlar uchun chop etilganligini inobatga olgan holda amalga oshirilmog‘i lozim. Lug‘atlardagi so‘zliklarning qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatdiki, qiyoslangan so‘zliklarning soni va sifati ularning ma’nolarini aniqlash, belgilash va qayd etishda to‘liq bir xillikka ega emas[3,8]. Masalan, biz yuqorida nomlari zikr etilgan lug‘atlarning ma’lumotlari bilan tanishganimizda ularning o‘ziga xos xususiyatlari hamda so‘zlarning ushbu lug‘atlarga kodifikatsiya qilinishida quyidagicha farqlarga duch keldik:

1. Chambers 20th Century Dictionary – 1983-yilda Buyuk Britaniyada chop etilgan, 62500 ta so‘zni o‘z ichiga olgan, 1583 betdan iborat.
2. Macmillan English Dictionary – 2007-yilda Buyuk Britaniyada chop etilgan, 100 000 ta so‘zni o‘z ichiga olgan, 1600 betdan iborat.
3. Bolshoy Anglo-Russkiy Slovar – 1972-yilda Moskvada chop etilgan, 150 ming so‘zni o‘z ichiga oladi. 1688 betdan iborat.
4. The Merriam-Webster Dictionary – 2018-yilda AQSHda chop etilgan, 65 000 ta so‘zni o‘z ichiga olgan, 700 betdan iborat.
5. Oxford Dictionary of Current English – 2006-yilda Buyuk Britaniyada chop etilgan, 120 000 ta so‘zni o‘z ichiga olgan, 1081 betdan iborat.

Ushbu farqlanishlar lug‘atshunoslik amaliyotida mavjud bo‘lgan quyidagi holatlar bilan izohlanadi:

Birinchidan, yuqorida ta’kidlanganidek, har qanday lug‘atga olinayotgan so‘zlikning soni – lug‘atning kimlar uchun mo‘ljallanganligi, ya’ni adresat bilan bog‘liq.

Ikkinchidan, lug‘atlardagi son ko‘rsatkichlarining farqi lug‘atlarning tuzilish davomiyligiga, lug‘atlar oralig‘idagi vaqtning uzoq va yaqinligiga bog‘liq.

Uchinchidan, tillarning lug‘at tarkibining muntazam rivojlanishi, yangi tushuncha, termin-atamalarning paydo bo‘lishi va bu borada lug‘atlarning birmuncha kechikishi bilan bog‘liq.

To‘rtinchidan, lug‘at tuzuvchilarning ilmiy, amaliy salohiyati, lug‘at tuzish tajribasi va daliliy (ilyustrativ) misollar soni va sifatiga, ularga olingan manbalarning e’tirof etilgan darajasiga bog‘liq.

Til sistemasida leksik sath nominativlik va ifodaviylik nuqtayi nazaridan markaziy o‘rinni egallaydi[2,5]. So‘zlarning nomlash funksiyasi bo‘lmaganda tilning jamiyatdagi muloqot xususiyati ham bo‘lmas edi. Tilning milliy-madaniy xususiyati ham, avvalo so‘zda mujassamlashadi. So‘zning nomlash funksiyasi so‘z o‘zi ifoda etayotgan mazmunning tabiiy borliqdagi predmet va hodisalarga aloqadorligining ifodasidir. Darvoqe, so‘zning ma’no makoni (bulog‘i) tildan tashqarida mavjuddir. So‘z ma’nolarining soni va sifati til tizimida

muhrlangan bo'lsada, tilda gapirayotgan jamoaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda namoyon bo'ladi. Bilamizki, biror til jamoasi yangi bir narsani kashf etsa, unga albatta, o'z tilida mavjud bo'lgan tovushlar yordamida, so'z yasash usullaridan foydalanib yangi bir nom o'ylab topadi.

Xulosa

Fitometamorizatsiya o'zbek adabiyoti va xalq og'zaki ijodida ikkilamchi va uchlamchi nominatsiya jarayoni bo'lib, u yozma badiiy adabiyotimizda quyidagi ko'rinishlarga ega bo'lgan:

- a) ma'rifiy-badiiy asosdagi fitoso'z metafora;
- b) badiiy-ma'rifiy asosdagi fitoso'z metafora;
- v) ma'rifiy-taqlidiy asosdagi fitoso'z metafora;
- g) badiiy asosdagi fitoso'z metafora.

Xalq og'zaki ijodida esa faqat badiiy so'z metafora kuzatiladi. Unda fitoso'z metafora ramziylik va timsol darajasida emasligi aniqlandi.

So'zlarning ko'p ma'noliligini, shu jumladan metaforik ma'nolarni zamonaviy lug'atlarda kodifikatsiya qilish tamoyillarini o'rganish uchun dastavval ularning dunyosini tadqiq qilish ham nazariy ham amaliy ahamiyat kasb etishini ta'kidlash lozim. Mukammal nazariy asosga tayanmay turib zamon talabiga javob beradigan lug'atlar tuzish mumkin emas. Shuning uchun ham leksikologiya va leksikografiya fan tarmoqlarining bir-biri bilan qilgan hamkorligi bu ikki sohaning ilmiy va amaliy rivojiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Ko'p ma'noli so'zlarning ikkinchi darajali ma'nolari bilan bog'liqlik imkoniyatlarini aniqlash ancha murakkabligi ta'kidlanadi. Tadqiq etilgan lug'atlarning ma'lumotlariga asoslanib, so'zlarning asosiy ma'nosi bilan ba'zi bir ma'nolari markaziy ma'nodan ancha uzoqda joylashgan va ular o'rtasidagi bog'liqlik rang-barang yo'llar bilan amalga oshirilishini ko'rishimiz mumkin. Ba'zi bir holatlarda bunday so'zning o'ziga xos ma'no belgisi deb qarash ham to'g'ri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 488 b.

2. Abduvaliyev M.A. Slojnopodchinennye predlojeniya s pridatochnym ustupki v raznosistemnyx yazykax: Diss. ... kand. filol. nauk. Toshkent, 1989. – 145 s.

3. D.Rustamov. Leksemalar milliy madaniy xoslangan sememasining lingvomadaniy tadqiqi. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi, - Farg'ona, 2018. - S.55., D.Rustamov. Ko'rsatilgan asar, - S.56.

4. Laguta O.N. Lingvometaforologiya: osnovnye podxody // [http: www. Balkan Rusistics | Stati | Monografii. Metaforologiya. Teoreticheskiye aspekti. Ch.I. G.2. § 35.](http://www.BalkanRusistics|Stati|Monografii.Metaforologiya.Teoreticheskiyeaspekti.Ch.I.G.2.35)

5. Красных V. V. Etnopsixolingvistika i lingvokulturologiya: Kurs leksiy. - M.: Gnozis, 2002. – 284 s.



6. Zveginsev, V. A. Istoriya yazыkoznaniya XIX i XX vekov v ocherkax i izvlecheniyax. – M., 1960. – Ch. 1. – 466 s.
7. Dondua K. So‘z metafora v shirokom smysle i so‘z metafora poeticheskaya // Yazыk i myshleniye. M.; L., 1940. – C. 54-64.
8. Arutyunova N.D. So‘z metafora i diskurs // Teoriya metaforы. - M., 1990. - S. 112.